

**SOLIQ QO'MITASI HUZURIDAGI FISKAL INSTITUTI**

**Qo'lyozma huquqida  
UO'K: 330.322:316.422**

**IBRAGIMOV BOBURSHOH BOHODIR O'G'LI**

**SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI USLUBIYOTINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

Ixtisoslik: 08.00.07. – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science)  
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy maslahatchi:** Isroilov Boxodir Ibragimovich  
iqtisod fanlari doktori, professor

**Toshkent shahri- 2024-yil**

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                        |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| KIRISH.....                                                                                                                            | 3   |
| I BOB. SOLIQ MUNOSABATLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIIY AHAMIYATI.....                                  | 14  |
| 1.1§ Soliq munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solishning ilmiy, amaliy va nazariy xususiyatlari.....                            | 14  |
| 1.2§ O‘zbekiston hududida soliq munosabatlarini tartibga solish tizimi shakllanish genezisi.....                                       | 31  |
| 1.3§ Soliq munosabatlarini tartibga solish tizimi nazariyasi rivojlanish tendensiyalari.....                                           | 43  |
| Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....                                                                                                      | 52  |
| II BOB. SOLIQ MA’MURIYATCHILIGI TIZIMI, TARKIBI, ULARNI TASNIFLASH VA BAHOLASH MASALALARI.....                                         | 55  |
| 2.1§ Soliq ma’muriyatchiligi tizimi va uni tasniflash yo‘llari.....                                                                    | 55  |
| 2.2§ Soliq majburiyatlari tarkibi va uning ijrosini tartibga solishni takomillashtirish.....                                           | 69  |
| 2.3§ Soliq nazoratining soliq ma’muriyatchiligi samaradorligini ta’minlashdagi rolini oshirish masalalari.....                         | 85  |
| Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....                                                                                                      | 115 |
| III BOB. SOLIQ MUNOSABATLARI TIZIMINI TARTIBGA SOLISH AMALIYOTI VA MUAMMOLARI.....                                                     | 117 |
| 3.1§ Soliq ma’muriyatchiligi samaradorligi va yashirin iqtisodiyotni aniqlashda soliq nazoratidan foydalanishni takomillashtirish..... | 117 |
| 3.2§ Soliq xizmati organlari faoliyati samaradorligi va uni baholash tizimini takomillashtirish yo‘llari.....                          | 137 |
| 3.3§ Transfert narxlar soliq ma’muriyatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari.....                                                       | 147 |
| Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....                                                                                                      | 158 |
| IV BOB. SOLIQ MA’MURIYATCHILIGI TASHKILIIY-USLUBIIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                              | 161 |
| 4.1§ Soliq ma’muriyatchiligini tashkil etishning xorij tajribalari va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....                              | 161 |
| 4.2§ Elektron tijorat va xizmatlar bo‘yicha soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish masalalari.....                                | 171 |
| 4.3§ Raqamli soliq ma’muriyatchiligi va uni takomillashtirish masalalarini ekspert baholash yo‘llari.....                              | 187 |
| To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosa.....                                                                                                    | 197 |
| XULOSA.....                                                                                                                            | 201 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....                                                                                                | 204 |
| ILOVALAR.....                                                                                                                          |     |

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda globallashuv jarayonlarining kuchayishi sharoitida, tadbirkorlik subyektlarining erkin faoliyatini ta'minlash, ular faoliyatiga davlat organlari aralashuvini tubdan qisqartirish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirishda, davlat byudjet-soliq siyosatining ahamiyati oshib bormoqda. Xalqaro soliq va taraqqiyot markazi (ICTD) ma'lumotlariga ko'ra rivojlanayotgan mamlakatlarning 23 foizidagina soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish hamda rivojlantirish strategiyasi tasdiqlangan<sup>1</sup>. Xalqaro darajadagi iqtisodiyotlar globallashuv sharoitida rivojlangan mamlakatlarda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar yo'nalishlari ma'muriy bosimni pasaytirish va soliq to'lovchilar bilan o'zaro hamkorlik darajasini oshirish hamda soliq munosabatlari subyektlarining manfaatlari uyg'unligini ta'minlash tamoyillariga asoslanmoqda. Mazkur tamoyillar asosida amalga oshirilgan fiskal islohotlar natijasida soliq to'lovchilar huquqiy madaniyatini oshishi va soliq intizomini yaxshilanishiga erishilmoqda.

Jahonda moliyaviy beqarorlikning kuchayish sharoitida soliq ma'muriyatchiligi uslubiyotini takomillashtirishga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini baholash, soliq qarzlari yig'iluvchanlik darajasini oshirish, soliq yig'ish xarajatlarini kamaytirish, yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirishda fiskal instrumentlardan foydalanish, elektron tijorat aylanmalarni soliqqa tortishni takomillashtirish hamda soliq to'lovchilar va soliq organlari o'zaro hamkorlik faoliyatini yanada yaxshilash soliq ma'muriyatchiligiga oid ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Transfert baholarning nazorat tizimi mukammal emasligi va soliq to'lovchilar soliq monitoringi mexanizmi to'liq ishlamasligi hamda soliq to'lovchilar yashovchanlik darajasining past darajalari kabi muammolar soliq ma'muriyatchiligi

---

<sup>1</sup> ICTD bazasi ma'lumotlari.//ictd.com

samaradorligiga salbiy ta'sir etmoqda. Qayd etilganlar soliq ma'muriyatchiligi mexanizmlari samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish natijasida soliq monitoringi bilan qamrab olish va soliq to'lovchilar yashovchanlik darajalarini oshirish hamda yashirin iqtisodiyot hajmini soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish hisobiga pasaytirish kabi vazifalarning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot mavzusi dolzarbligini belgilaydi. Boqimanda qarzdorlikni undirish samaradorligini oshirishda soliq to'lovchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish, soliq monitoringi qamrovini kengaytirishni rag'batlantirish, soliq siyosatida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun jazo tizimini liberallashtirish hamda yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirishda fiskal instrumentlardan foydalanish masalalarini o'rganish soliq ma'muriyatchiligi uslubiyotini takomillashtirishning muhim vazifalari hisoblanadi.

Shuningdek, axborot-texnologiyalar tizimini ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalariga izchillik bilan kirib kelishi hamda qo'llanilishi soliq nazoratini amalga oshirish va uning samaradorligini oshirish bilan birga, ushbu jarayonlarda bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Qayd etilganlar soliq ma'muriyatchiligi tashkiliy va uslubiy mexanizmlari samaradorligini oshirish muammolari yuzasidan nazariy hamda amaliy ilmiy tadqiqotlar olib borish natijasida ularni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098-son "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-iyundagi PF-162-son "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-son "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida»gi Farmonlari hamda 2022-yil 15-apreldagi PQ-208-son "Byudjetlararo munosabatlarni va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish to'g'risida",